



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI OLTINSOY TUMANI**  
**HOKIMLIGI**

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy, 190700, tel: (+99876) 47-77-516, oltinsoy\_t@exat.uz, [www.Oltinsoy.uz](http://www.Oltinsoy.uz)

---

15 aprel 2025 yil.

**01-48/87-son**

**Xalq deputatlari tuman Kengashiga**

**Oltinsoy tuman Iqtisodiyot va moliya  
bo‘limi boshlig‘ining birinchi  
o‘rinbosari S.Saidaxmedovga**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘ining 2025-yil 14-mart kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasi faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risda” 2022-yil 18-yanvardagi 30-son qarorining 3-bandiga muvofiq **2022-yildan boshlab, har yili** iqtidorli yoshlarni kashf qilish va ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mirzo Ulug‘bek vorislari” respublika tanlovining tuman (shahar) va viloyat bosqichlarini o‘tkazish belgilab qo‘yilganligi, mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida **joriy yilning 3-11-mart kunlari** tanlovning tuman (shahar) bosqichlari belgilangan reja-jadvalga asosan yuqori saviyada o‘tkazilganligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 3-bandida tuman (shahar) bosqichlarida g‘olib bo‘lgan **5 nafar ishtirokchilarni** amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining **5 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti** bilan taqdirlash belgilab qo‘yilganligi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining **2025-yil 14-fevraldagi 30/1-142-sonli** xatida mazkur tanlovning tuman (shahar) hamda viloyat bosqichlariga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish, ushbu bosqich g‘oliblarini taqdirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun **mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan zarur mablag‘lar ajratilishini ta’minlash** bo‘yicha vazifalar berilganligi, tanlovning Termiz shahar va barcha tumanlar bosqichlari g‘oliblarini bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlashda amaliy yordam berish haqidagi 0610-sonli xatiga asosan Vazirlar Mahkamasi qarori va 2025-yil 14-fevraldagi 30/1-142-sonli xati hamda tanlovning tuman (shahar) bosqichlari yakunlari bo‘yicha yig‘ilish bayonlari ijrosini ta’minlash maqsadida “Mirzo Ulug‘bek vorislari” respublika tanlov nizomining 3-bob 21-qismiga asosan g‘olib bo‘lgan Oltinsoy tumanidagi 5 nafar ishtirokchilar bazaviy

hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlash maqsadida pul mablagʻlari ajratilishi yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasiga kiritilishida amaliy yordam berishingizni soʻraymiz.

*Izoh: Barcha toʻplangan xujjatlar ilova qilinadi.*

**Tuman hokimining  
oʻrinbosari**



**A.Abdusattorov**